

Matematika fanining Milliy dasturi loyihasi muhokama qilinmoqda

O'zR FA Matematika institutida Institut yetakchi olimlari, akademiklar, Fan olimpiadalari bo'yicha iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash departamenti, Xalq ta'limi vazirligi vakillari, oliy ta'lim muassasalari o'qituvchi-professorlari, matematika fani darsliklari mualliflari ishtirokida matematika fanining Milliy dasturi loyihasi muhokama qilinmoqda.

Maktab o'quvchilari orasidan Matematika faniga iqtidorlilarini saralab olish bo'yicha Prezidentimizning 2020 yil 7 maydagi PQ-4708 qaroriga muvofiq har bir tumanda Matematika faniga ixtisoslashgan maktablar tashkil etilmoqda. Endi asosiy maqsad ularni Davlatimiz Rahbari ta'kidlaganlaridek, faqat yodlashga emas, balki fikrlashga chorlaydigan metodika asosida o'qitishni tashkil etish kerak. Shu kunlarda, FA Matematika insituti va Xalq ta'limi vazirligi hamkorlikda "Matematika fanidan milliy dasturi"ni ishlab chiqmoqda. Bunda mavzularni spiralsimon ravishda sinflarga ajratgan holda shakllantirilmoqda, bu esa o'quvchilarni kreativ fikrlashini shakllantirishga hamda ularni kasbga qiziqishlarini aniqlash va bosqichma-bosqich kasbga yo'naltirishga xizmat qiladi.